



O'SMIRLIK DAVRIDAGI O'QUVCHILARNING OTA-ONALARI UCHUN PSIXOLOGIK MASLAHATLAR

Toshmatova Xusnida Nurmuhammedovna

Namangan viloyati Yangiyo'rg'on
tumani 47-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali muallif o'smirlik yosh davri psixologiyasi, uning atrofga bo'lgan munosabati va ota onaning ta'lim tarbiya uslubi haqida so'z yuritgan.

Kalit so'zlar: O'smir, o'spirin, fantastik hayol, real hayot, axloq, adaptatsiya.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti, muhtaram Sh.Mirziyoyev aytganlariday "Hozirgi zamon va kelajak bu yoshlar qo'lida. Biz yoshlarni qo'llab quvvatlasak, ularga keng imkoniyat yaratib bersak, kelajakda albatta buning natijasini ko'ramiz" bu so'zlar zamirida kattadan katta mano bor. Inson bu hayotda tug'ilar ekan u o'zini individlik chog'idan rivojlana boshlaydi. Ulg'ayadi, turli hildagi yosh davrlarni boshidan o'tkazadi. Bu yosh davrlar xar biri o'ziga hos hususiyatga ega. Xar bir yosh davrining o'ziga yarasha injiqliklari bo'ladi. Bu injiqliklar psixologiya fanida yosh davrlar inqirozi deb ataladi. Bu inqiroz insonni hayot sinovlarida toblaydi. Yuksaltiradi, o'ziga ishonchini oshiradi. Qachonki inqirozlar davrida atrof muhit va ta'lim tarbiya to'g'ri yo'naltirilsa inson mukammammal shaxs bo'lib ulg'ayadi. Agar noto'g'ri yo'naltirilsa inson kamolotida salbiy o'zgarishlar yuz beradi.

Bu inqirozlarning eng asosiysi o'smirlik yoshiga borib taqaladi. Bu yosh davrda shaxs ko'p tomonlama jadal rivojlanishda bo'ladi, fiziologik, psixologik, anatomik rivojlanish tub o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Eng avvalo psixologiyasida, xulqida, muomula madaniyatida, o'zini tutishida yetarlicha seziladi. Eng asosiysi bu davrda o'smir his tuyg'ularga nisbatan



sezgir xolatda namoyon bo'ladi. Uning hayotida Yana bir ahamiyatli, yoqimli inson paydo bo'ladi. O'smir o'z o'zidan aql bilan emas, his tuyg'u bilan xulosa chiqarishga o'tadi. Ota ona uchun esa huddi bolasi begonalashib borayotganday tuyiladi. Farzandining orzulari uning fantastik hayoli rivojlanish, real hayotdan uzoqlashib boradi. By davrda ota ona doimo to'g'ri yo'l tutishni bilishi lozim. Eng avvalo ota onaning o'zida yetarlicha psixologik bilimlar bo'lishi lozim. Avvalo yanayam ko'proq e'tibor, yanayam ko'proq mexr berilishi ijobiy ko'rsatkichlarga sabab bo'ladi. Bu vaziyatda ota onaga beriladigan asosiy maslaxat endi siz ota ona bo'lib emas farzandingizni do'sti bo'lmog'ingiz lozim. O'zingizni farzandingiz o'rniga qo'yibgina uni tushuna olasiz. Unga yaqin munosabatda bo'lishingiz, uni qo'llab quvvatlashingiz lozim. Zinxor uning ko'ngil qo'ygan insonini yomon tomonlarini ayta ko'rmang, yomonlamang. Bolangiz bilan yoqimli, samarali muloqot o'rnatishga xarakat qiling. Zero shundagina siz farzand va ota ona munosabatlarini yaxshilay olasiz. O'smirlarda tanbex va tanqiddan qochish holatlari kuchayib boradi. Siz uni tanqid qilib o'zingizdan uzoqlashishiga sabab bo'lasiz.

Inson ushbu hayoda yashar ekan doimo yaxshi Yashash, o'zidan yaxshi nom qoldirishni xoxlaydi. Siz tarbiya qilayotgan farzand sizning nomingizni, avlodingizning davomchisidir. Ollox biz insoniyatni ongimiz, aql zakovatimiz sababli hayonot olamidan farqli etib yaratdi. Shunday ekan jamiyatni aqlli, tarbiyali, atrofga foydasi tegadigan insonlar bilan boyitish bu barchamizning vazifamizdir. Shu vazifamiz sababli biz ota onalik nomiga munosib Deb topilamiz. Shunday ekan bu imkoniyatni doimo saqlab qolish lozim.

Har bir ota-ona farzandining baxti kelajagi ertangi kunini o'ylab hamisha yaxshi tilaklar, orzu intilishlar va maqsadlar bilan yashaydi. Shunday ekan oilada farzandlarni ma'naviy-ma'rifiy, yuksak barkamol etib voyaga yetkazishda pedagogik-psixologik tarbiyaning ahamiyati, o'rni beqiyos. Aynan shining uchun xam hozirgi kunda psixologik xizmat soxasi jadal rivojlanib kelmoqda. Bola 14 yoshgacha ota-onadan quvvat oladi. Shu yoshgacha tanqid va aybdorlik hissini o'rniga mehr bergan bo'lsangiz bu albatta qaytadi. Inson o'zidan oshib-toshib ketgan narsanigina beminnat shunchaki bera oladi. Siz ham



o'zingizdagi mehrni berayotgan bo'lsangiz bola ham shunday qiladi, sizni o'zingizga mehr yetmayotgan bo'lsa boladan ijobiy xulq atvorni va mehrni kutmang. Agar bolaga do'stona munosabatda bo'linsa, u dunyo yaxshi yashash uchun yaxshi maskan ekanligini anglaydi.

O'smirlik yoshidagi farzandni buyuk Sharq Pedagoglaridan biri Al Farobiy cho'g'ga qiyoslaydi. Ota ona esa shamol Deb takidlaydi. Agar cho'g'ga shamol to'g'ri va o'z vaqtida yo'naltirilishi juda muhimdir. Agar shamol haddan ko'p yuborilsa cho'g' alanga bo'lib, olovga aylanadi. Agar yetarli berilmasa u so'nib, qaytib yonmaydi. Shuning uchun ota ona doimo oltin o'rtalikni topa olishi muhimdir. Shu o'rtalik bolani xaqiqiy ulg'ayish maskani bo'lmog'i lozim. Ming afsuski yurtimizda barcha ota onalarida xam bu kabi ilmlar yetarli emas. Ota onalar farzandlar bilan kerakli muloqotni o'rnatishda yetarlicha malaka bilan qurollanishmagan. Bularning barchasi jamiyatimizdagi kamchiliklar desak adashmagan bo'lamiz.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi, kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir. Farzand bu ota ona ko'zgusi hisoblanadi. Ota ona o'zidagi ijobiy va salbiy sifatlari bilan farzandlariga o'rnak bo'lib boradi. Ota ona tomonidan uqtirilgan Pand nasihatlar aqilli farzand uchun hayot davomida dasturi amal bo'lib hizmat qiladi. Shunday ekan avvalo inson o'z kamchiliklarini tuzatishi, xar bir vaziyatdan o'ziga kerakli xulosa olishi lozim. Yuqorida aytganimizday o'smirlik Yoshi inson xayotining eng muhim yosh davrlaridan biridir. Aynan shu yoshda shaxs atrof bilan muloqot qilishni, o'z kuchiga ishonishni, kelajagini rejalashtirishni, orzu qilishni, kasb tanlashni o'rganadi va faoliyatida sinab ko'radi. Aqilli ota ona bu vaziyatda bolaga munosabat qilishdan avval o'zi xam o'smir pazitsiyasiga o'tishi lozim. O'zi shu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lar edi. Bularning barchasi dunyoning yetakchi psixologlar tomonidan o'z tajribalarida o'z talqinini topib ulgurgan. O'smir xam bu yoshida o'zi uchun yetarlicha tajriba to'playdi. Aynan shu tajriba uni yanayam hayot sinovlarida oson o'tishiga, yaxshi va to'g'ri qaror qabul qilishiga olib keladi. O'smir atrofga doim qiziqish ko'zi bilan qaraydi. Xamma narsani bajarib ko'rishni



xoxlaydi. Maqtoov va mulozamatni Joni dili bilan hushlaydi. Shu vaziyatda ota ona avvalo farzand tomoniga o'tishi, uni qarorlariga ijobiy qarashi va kerakli vaqtda to'g'ri maslaxatlari bilan uni boshqara olishi lozim. Ota ona bilan farzand o'rtasini buzadigan narsa bu ishonchsizlikdir. Shuning sababli o'rtadagi ishonch ko'zgusi sinishiga yo'l qo'ymang. Doimo bolangizga halollik, kamtarlik va to'g'rilikni uning ongiga singdirib boring. Shundagina siz o'ylagan natijaga erishishingiz, jamiyatga kerakli shaxslarni tarbiyalashingiz mumkin.

Shu o'rinda Mana shu satrlar qalbimga quyulib keldi:

Egri bosgan izingdan ko'r.

Senga raxmat aytsalar gar,

Yaxshi o'g'il qizingdan ko'r.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq"
2. O'.Hoshimov "Daftar xoshiyasidagi bitiklar". 2015. Toshkent
3. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
4. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
5. Nishonova Z, Alimova G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.